

Badiiy grafikada kubizmdan foydalanish usullari va uslublari

Mohinur Sattorovna Turaeva
Buxoro pedagogika instituti

Annotatsiya: Maqolada ta'lim maqsadlari o'qituvchiga qanday shaxsni shakllantirish kerakligi haqida aniq tasavvur beradigan va uning ishiga kerakli ma'no va yo'nalish beradigan bilim sharoitlarining usullari va uslublari ochib berilgan. Badiiy grafikadagi pedagogik faoliyat - ma'naviy va amaliy tajribani uzatish jarayonida odamlar o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlarni ta'minlaydigan faoliyat, ikki xil bo'lib, ular - ilmiy va amaliy turlarga bo'linadi. O'qituvchilik faoliyatining badiiy grafikada kubizmdan foydalanish hollari uchrab turishi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari tizimini, shu jumladan, shaxsni rivojlantirish va tarbiyalash maqsadlarini shakllantirishga qaratilgan bo'lishi ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: grafika, kubizm, rang-tasvir, haykaltaroshlik, tasviriy san'at, ko'rgazmalar, modernizm

Methods and styles of using cubism in artistic graphics

Mokhinur Sattorovna Turaeva
Bukhara Pedagogical Institute

Abstract: The article reveals the methods and styles of the circumstance of knowledge in which the goals of education give the teacher a clear idea of what kind of person he should form and gives his work the necessary meaning and direction. Pedagogical activity in artistic graphics is an activity that ensures the relationships that arise between people during the transfer of spiritual and practical experience, namely of two types: scientific and practical. The teaching activity of a teacher is an activity using cubism aimed at forming a system of knowledge, skills and competencies of students, including at the same time the goals of development and education of the individual.

Keywords: graphics, cubism, painting, sculpture, fine arts, exhibitions, modernism

Kubizm - g'arbiy yevropaga xos bo'lgan yo'nalish bilib, avvalo rang-tasvir sohasida hamda haykaltaroshlik san'atida modernizm tushunchalari bilan bog'liq bo'lib dunyoga keldi. "Kubizm" atamasining paydo bo'lishi 1911 yilga borib taqaladi, chunki bu davrda Jan Metzinger, Albert Gleyz, Robert Delaunay va Fernand Legerning

kvarteti o'ylab topgan rang - tasvirdagi yangicha yo'nalish sabab bo'ldi. 1911 yilda shoir va tanqidchi Guillaume Apollinaire Bryusseldagi "Mustaqillar" ko'rgazmasida ishtirok etish uchun taklif qilingan bir guruh rassomlar nomidan ushbu atamani qabul qilinishi bo'ldi. Avvalo, frantsiyada rangtasvir va haykaltaroshlik endi rivojlanib kelagotgan edi, ammo keyinchalik ular boshqa mamlakatlarda ham qo'llanila boshlandi. Kubizm yo'nalishi 20-21-asrlar me'morchilik, adabiyot va musiqasiga o'z ta'sirini o'tkazdi.

Kubizm harakati tasodifan paydo bo'lgan yo'nalish sifatida, san'at tarixida kirib keldi. 1908 yilda Parijda kuzgi salon hakamlar hay'ati bo'lib o'tgan va shu hay'at yig'ilishida Jorj Brakning "Estaquedagi uylar" kartinasiga rad javobi berilgan. Hakamlar hay'ati a'zolaridan biri rassom Anri Matisning aytishicha, rasm g'alati bo'lgan shakllar "kublar bilan bo'yalgan" edi. 1908 yilda Lui Vosksel Daniel Anri Kanveyler galereyasida Jorj Brakning ko'rgazmasini ko'rib chiqib, bir qancha o'zining fikrlarini bayon qilgan. Rassomni shaklni mensimaydigan, "hamma narsani, joylarni, figuralarni va uylarni geometrik naqshlarga, kublarga qisqartiradigan" jasur odam deb atagan.

Ayrim fikrlarga ko'ra, "kubizm" atamasi shoir Maks Jeykob tomonidan yaratilgan bo'lib, 1907 yil iyun oyida Pablo Pikasso, uning hamrohi Fernanda Olivye, Giyom Apollinaire va Mari Lorensin bilan do'stona uchrashuvlar va san'at bo'yicha bahslar paytida kiritilgan neologizmdir.

"Kubizm" atamasining tarqalishi 1911 yilga to'g'ri kelib, asosan Jan Metzinger, Albert Gleyz, Robert Delaunay va Fernand Legerlar o'z asarlarida bu san'at turidan keng foydalanishgan. 1911 yilda shoir va tanqidchi Guillaume Apollinaire Bryusseldagi "Mustaqillar" ko'rgazmasida ishtirok etish uchun taklif qilingan bir guruh rassomlar nomidan ushbu atamani qabul qildi. Albert Gleizes va Jan Metzinger tomonidan yozilgan "Kubizm to'g'risida" kitobi 1912 yilda ushbu atama atrofidagi chalkashliklarga oydinlik kiritish va jamiyatda g'azabni keltirib chiqargan rasmdagi yangi harakatni himoya qilish uchun nashr etilgan. Bu asar kubizm haqidagi birinchi nazariy risoladir.

Badiiy madaniyat ongli borliqning bir qismi bo'lib, voqelikni estetik idrok etishni shakllantiradi, odamlar ongiga ta'sir qiladi va bilish tajribasini efirga uzatadi. San'atni turli yo'nalishlarini o'rganish biz uchun har doim dolzarb bo'lib kelmoqda. Ushbu maqolada biz dizaynerning yangi tafakkurini, yangi vizual nuqtai nazarini ifoda etadigan, modernizmning badiiy harakati bo'lmish - XX asr yevropa san'atining yangi uslubini shakllantirgan kubizmni ko'rib chiqamiz. Zamonaviy grafik dizayndagi kubizm badiiy tamoyillarning uzluksizligi kuzatiladi. Ushbu hodisaning mohiyatini tushunish uchun kubist rassomlar tomonidan qanday g'oyalar yaratilganligini va qanday yondashuvlar hali ham ishlayotganini tushunishimiz lozim.

Kubizmning shakllantiruvchi g'oyasini aniqlash uchun avvalambor tarixni o'rganishimiz lozim. Shu bilan bir qatorda tekislikdagi tasvirning an'anaviy kompozitsion tuzilishini va shakl yaratishning o'ziga xos usullarini tahlil qilish kerak. Kubizm rivojlanishning bir necha bosqichlarini bosib o'tgan. Birinchisi Sezan bosqichi, ikkinchisi analitik va uchinchisi sintetik bosqichlardan iborat. San'atda ushbu yo'nalishni belgilab bergan asosiy eksperimentator shaxs Pol Sezan edi. Kubizmning paydo bo'lishiga uning har qanday shaklning asosi asl shakllarning hajmli geometriyasi ekanligi haqidagi nazariyasi ta'sir ko'rsatdi.

U geometrik shakllar to'plamini ko'rishni bilardi. Sezanning yaqin izdoshi yosh Pablo Pikasso bo'lib, u haqiqiy ob'ektlarni ritmlar va sirt qirralarining kombinatsiyasi sifatida taqdim etdi. U bu fikrni rivojlantirdi. Barcha yuzlar va burchaklarni bir vaqtning o'zida ko'rishimiz uchun hajm iborasini kashf etdi va buni bir muncha soddalashtirdi. Pikasso, shuningdek, Sezanning rang va tekislik shaklini shakllantirgan konstruktiv cho'tkasi texnikasidan foydalangan. Tasviriy tekislikda dastlabki shakllarning ma'lum bir joylashuvidan so'ng kubistlar asosiy e'tiborni shakl yaratishga qaratdilar. Shakllar - real ob'ektlarning plastik modellari - deyarli mustaqil mavjudlik va ramziy ma'noga ega bo'la boshladi. Kubistlar o'zlarining nazariy kontseptsiyalarida e'tiborni chiziq va rang shaklining plastikligi o'rtasidagi munosabatlarga qaratdilar. Ushbu yo'nalishning badiiy texnikasi tasvirning bir nechta tekisliklarga qattiq bo'linishi va ob'ektlarning fiziologiyasini shaklning tabiatini keskinlashtiradigan siljishlar orqali o'zgartirishga asoslangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Развитие кубизма в культурологии.
2. Как Сезанн вдохновил Пикассо? (дата обращения: 17.02.2022).
3. Аполлинер Г. Пикассо. О живописи // Пространство другими словами: Французские поэты XX века об образе в искусстве. СПб. : Изд-во Ивана Лимбаха, 2005. С. 19-26.
4. Бабурина Н. И. Русский плакат: вторая половина XIX — начало XX века. Ленинград : 1988.
5. Грабовенко А. Ю. Толкования термина «постмодернизм» в архитектурной критике
6. Ван Мэни. Художественно-коммуникативные особенности современного плаката: новейшие концепции и тенденции развития в зарубежной практике: диссертация по специальности 17.00.06 «Техническая эстетика дизайна».
7. Бренькова Г. М. Формирование коммуникативных свойств графического языка дизайна: дис. ... канд. искусствоведения : 17.00.06. М., 1989.
8. Игошина Т. С. Графический дизайн отечественного социального плаката: история и современные тенденции: дис. ... канд. искусствоведения: 17.00.06.